

O‘ZBEK VA RUS XALQ LATIFALARINING JANRIY TABIATI VA TIPOLOGIK MODELLARI

G‘ayratbek Oybek o‘g‘li XOLBUTAYEV

dotsent

filologiya fandari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Andijon, O‘zbekiston

gayratbek19912705@gmail.com

Аннотatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek va rus xalq latifalarining janriy xususiyatlari, sotsiologik va strukturalistik jihatlari qiyosiy tahlil qilingan. Yu.M.Sokolov va V.Ya.Propp kabi olimlarning metodologik yondashuvlariga tayanilgan holda, latifalarning universal sxemasi (vaziyat → kutilma → puant) hamda milliy-madaniy kontekstdagi farqlari yoritilgan. Har ikki xalq latifalari tematik, struktural va funksional mezonlar asosida tasniflangan hamda o‘zbek latifalaridagi “hikmatli yumor” va rus latifalaridagi “satirik-ijtimoiy model”ning o‘ziga xosliklari dalillangan.

Tayanch so‘zlar: latifa, folklor, puant, tipologiya, komizm, Afandi, ijtimoiy satira, o‘zbek va rus folklori, struktural tahlil.

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЖАНРА ЛАТИФА (АНЕКДОТ) В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ФОЛЬКЛОРЕ

Гайратбек Ойбек угли ХОЛБУТАЕВ

доцент

Доктор философии по (PhD) филологическим наукам

Андижанский филиал Кокандского университета

Андижан, Узбекистан

Аннотация

В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ жанровых особенностей узбекских и русских народных анекдотов. Основываясь на методологических подходах Ю.М. Соколова и В.Я. Проппа, рассматриваются социологические и структурные аспекты жанра, анализируется универсальная схема микросюжета (ситуация → ожидание → пуант). Исследование выявляет национально-культурную специфику: преобладание «мудрого юмора» в узбекской традиции и «сатирико-социальной модели» в русской. Статья предлагает классификацию анекдотов по тематическим, структурным и функциональным критериям.

Ключевые слова: анекдот, фольклор, пуант, типология, комизм, Афанди, социальная сатира, узбекский и русский фольклор, структурный анализ.

Xalq og‘zaki ijodining eng ixcham, ammo ijtimoiy yuklama jihatidan eng kuchli janrlaridan biri bo‘lgan latifa (anektod) asrlar davomida jamiyatning “ma’naviy barometri” vazifasini o‘tab kelmoqda. Bugungi globallashuv davrida turli xalqlar madaniyatini tushunish, ularning dunyoqarashi va milliy mentalitetini anglashda folklor namunalarini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, o‘zbek va rus folklorshunosligida latifa janrining ilmiy o‘rganilishi uzoq yillik metodologik izlanishlar natijasida boy ilmiy bazaga ega bo‘ldi.

Rus folklorshunosligida Yu.M.Sokolov va V.Ya.Proppning fundamental qarashlari latifa janrining ham mazmun, ham shakl jihatdan mohiyatini ochib berdi. Agar Sokolov latifalarni xalq ijtimoiy hayotining bevosita in’ikosi deb bilib, ularni mazmun va ijtimoiy funksiyasiga ko‘ra (maishiy, satirik, tarixiy) tasniflagan bo‘lsa, Propp bu janrga qat’iy struktura nuqtai nazaridan yondashdi. U latifani kirish, ziddiyat va kutilmagan yechim – puantdan iborat mukammal mikrosyujet sifatida tahlil qildi.

O‘zbek folklorshunosligida ham bu borada o‘ziga xos maktab shakllangan. K.Imomov, O.Safarov va M.Jo‘rayev kabi olimlar latifaning nafaqat kulgi vositasi, balki xalq donishmandligi, milliy qahramonlar (masalan, Nasriddin Afandi) obrazi orqali namoyon bo‘ladigan didaktik va etik manba ekanligini isbotlab berdilar.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, o‘zbek va rus latifalari garchi universal komik strukturaga (vaziyat → kutilma → puant) ega bo‘lsa-da, ularning har birida milliy madaniyatning o‘ziga xos kodi yashiringan. O‘zbek latifalaridagi sharqona hikmat va nazokatli yumorning, rus latifalaridagi keskin ijtimoiy satira va absurd komizm bilan qiyoslanishi ikki xalqning tafakkur tarzidagi mushtaraklik va farqlarni ilmiy asoslash imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – o‘zbek va rus xalq latifalarini tipologik qiyoslash orqali ularning janriy tabiatini aniqlash, sotsiologik va strukturalistik yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda yangi tasnifiy modellarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Matnda latifa janrini tahlil qilish uchun quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

Sotsiologik yondashuv (Yu.M.Sokolov): Latifaning ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi, uning mavzu ko'lami va jamiyatdagi funksiyasi tahlil qilindi.

Struktural yondashuv (V.Ya. Propp): Latifaning ichki mexanizmi, xususan, «nomutanosiblik», «me'yorning buzilishi» va «puant» (kutilmagan yakun) kabi strukturaviy elementlari o'rganildi.

Qiyosiy-tipologik metod: O'zbek va rus latifalarining universal sxemasi (vaziyat → kutilma → puant) hamda milliy-madaniy kontekstga xos farqlari qiyoslandi.

Latifa (анекдот) janri xalq og'zaki ijodining eng dinamik va funksional jihatdan serqirra ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. U qisqa syujet, kutilmagan yakun (puant) va komik ta'sir orqali ijtimoiy voqelikni aks ettiradi. Turli xalqlar folklorida latifa janri umumiy strukturaga ega bo'lsa-da, uning mazmuni, funksiyasi va obraz tizimi milliy xususiyatlarga ko'ra farq qiladi. Rus va o'zbek latifalarini qiyosiy o'rganishda V.Ya.Propp, Yu.M.Sokolov va B.N.Putilov nazariyalari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida: “*Latifa* – (a) 1. kulgili voqea-hodisalar haqida kichik hikoya. Afandi latifalari afsonaviy xalq qahramoni Xo'ja Nasriddin Afandining sarguzashtlari bilan bog'lab, xalq tomonidan yaratilgan qisqa-qisqa kulgili hikoyalar”,- deb izohlanadi [15; 428].

Darhaqiqat, latifa – bu qisqa hajmli, bir epizodli, komik ta'sirga ega bo'lgan hayotiy voqealarni badiiy ifodalagan epik janr bo'lib, uning markazida *kutilmagan burilish (puant)* yotadi. V.Ya.Propp ta'kidlaganidek, kulgi “kutilgan va voqeyiy natija o'rtasidagi ziddiyat”dan kelib chiqadi.

Bizning kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, rus va o'zbek latifalarida ushbu struktura umumiy bo'lib, ular quyidagi elementlardan tashkil topadi: *vaziyat* → *kutilma* → *puant*. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur universal sxema har bir xalq folklorida o'ziga xos bo'lgan bir-biridan farqlanuvchi turlicha mazmun bilan to'ldiriladi.

Rus latifalari ko‘proq ijtimoiy tanqid va satirik mazmun bilan xarakterlanadi. Yu.M.Sokolov ularni “xalqning ijtimoiy fikrlariga bo‘lgan munosabatining ifodasi” sifatida baholaydi [13; 213]. Rus folklorida mavjud latifalar mavzu ko‘lamiga ko‘ra quyidagicha tasniflangan:

1. *Ijtimoiy-satirik latifalar.* Bu turdagi latifalarda davlat tuzumi, byurokratiya, amaldorlar ustidan kulgi orqali muayyan hayotiy mammolar tanqid qilinadi. Masalan: Majlisda hukumat vakili kasalxonani buzilishidan norozi odamlarni tinchlantirish uchun so‘zga chiqdi va “Xullas, o‘rtoqlar bizning qarorlarimiz qat’iy va barchasi qonun bo‘yicha”,-deb nutqini yakunladi. Shunda zalda o‘tirgan bir qariya: “Lekin aql bo‘yicha emas”,-deya luqma tashlaydi. Bu yerda komizm manbai – *norma va realiyat ziddiyati* bo‘lib, diologik nutq jarayonida yuz beradi.

2. *Absurd latifalar.* Bu turdagi latifalarda mantiqiy izchillik buziladi. Masalan: Ayol tanbal eriga qarab: “Nega ishlamaysan?”- deb noliydi. Tanbal er pinagini buzmasdan: “Chunki ishlash uchun dam olish kerak”,- deb javob beradi. Bu V.Ya.Propp ta’riflagan paradoks va nomutanosiblikni ifodasidir.

3. *Kasbiy latifalar* (soldat, professor, vrach) kabi obrazlar orqali ijtimoiy muammolar tanqid qilinadi.

O‘zbek folklorshunosi K.Imomov latifalarga quyidagicha ta’rif berilgan: “O‘zbek xalq nasrining hajv, yengil yumor, hazil-mutoyiba, so‘z o‘yini, masxara, nayrang ko‘rsatishga asoslangan achchiq yoki xushchaqchaq kulgi yaratuvchi mustaqil janridir” [7; 199]. Taniqli o‘zbek folklorshunosi O.Safarov: “Latifalarda ortiqcha tasviriylik kuzatilmaydi. Latifalarda, kompozitsiyaning soddaligi, syujetning ixcham va lo‘ndaligi, yechimning favqulodda yuz berishi va tasodifan ko‘tarilgan kulgiga asoslanganligi, yagona markaziy qahramon obraziga bog‘liqligi latifaning doimiy va barqaror janriy belgilari sanaladi”,- deb hisoblaydi [11; 221].

O‘zbek va Amerika xalqlari latifalarini tadqiq etayotgan tadqiqotchi M.Mardonov: “Latifa o‘zbek xalq nasrining kichik hajmli, ixcham syujetli kulgi qo‘zg‘ashga asoslangan og‘zaki epik janri sanaladi. Latifalar bir kishi tomonidan ijro etiladi. Og‘zaki ijro etilgan matnda albatta epik qahramonning sarguzashti

kulgili hodisa bilan intiho topadi. Ko‘pincha latifalarda badiiy voqeilik ikki tomon ya’ni bosh qahramon va qarama qarshi tomondagi personajlar o‘rtasidagi dialog asosiga quriladi. Bosh qahramon o‘zining zukkoligi, hozirjavobligi yoki quvligi bilan ajralib turadi. O‘zbek xalq latifalarida bir kishi, kal, aldar ko‘sa, Nasriddin Afandi kabi bosh qahramonlar mavjud. Keyingi paytlardagi zamonaviy latifalarda jinni, shirini singari yangi epik qaharmonlar ham ko‘zga tashlanadi”, -deb yozadi [1;128–136].

O‘zbek latifalarida yumor ko‘proq hikmat va tarbiyaviy mazmun bilan uyg‘unlashgan. B.N.Putilov ta’kidlaganidek, folklor janrlari madaniy kontekst bilan chambarchas bog‘liq [10; 132–140]. O‘zbek xalq latifalari mavzu ko‘lamiga ko‘ra uch guruhga ajratiladi:

1. *Afandi latifalari*. O‘zbek latifalarining eng keng tarqalgan turi – Afandi obraziga bog‘liq. Masalan: Afandi bir poshshoga baliq sovg‘a qildi. Poshsho bu sovg‘a uchun Afandiga xazinadan bir tilla in’om qildi. Afandi chiqib ketishi bilan vazir poshshoga dedi:

– Har kim baliq ko‘tarib kelsa bir tilladan beraversangiz xazina bo‘shab qoladi-ku?

– Darvoqe, aytganingiz to‘g‘ri. Nima qilish kerak?

– Darhol Afandini qaytarib kelishni buyuring, – dedi vazir. Poshsho Afandining ketidan odam yubordi-da, vazirga dedi:

– Tillani qaytarib ber desak qanday bo‘lar ekan?

– Buning iloji oson, – dedi vazir, – Afandidan balig‘ing erkakmi, urg‘ochimi deb so‘raysiz, urg‘ochi desa, «Menga erkak baliq kerak» deysiz, erkak desa, «Menga urg‘ochi baliq kerak» deysizu tillani qaytarib olasiz.

Afandi keldi. Poshsho undan so‘radi:

– Balig‘ing erkakmi urg‘ochimi?

Afandi poshshoning niyatini payqab:

– Balig‘im xunasa edi, – deb javob berdi.

Poshsho uning ziyrakligiga qoyil qolib, yana bir tilla in’om qildi.

Bu yerda yumor: mulohaza → ironiya → hikmat orqali o‘z badiiy ifodasini topgan.

2. *Maishiy latifalar.* Bunday latifalarda kundalik hayot bilan bog‘liq voqealar tasvirlanadi. Masalan: Bir kuni daryoda bir odam oqib ketayotgan ekan.

Oqayotgan kishi jon talvasida dodlabdi:

– Odamlar yordam beringlar!

Shunda bir kishi uni ko‘rib qolib, sohildan oqayotgan kishiga qarab:

– Kimsan, nima kasbing bor?-deb so‘rabdi. Haligi oqayotgan kishi:

– Duradgorman, -deb javob beribdi. Sohildagi odam:

– Bir imoratim bor shuni qurib berasanmi? Agar qurib bersang qutqaraman-deb so‘rabdi. Oqayotgan duradgor:

– Materiali qanaqa yog‘och deb savolga savol bilan javob qaytaribdi.

Sohildagi kishi:

– Baqa terak, - desa, oqayotgan duradgor:

– Qo‘yavering unda oqib o‘laqolay, - deb javob beribdi.

3. *Axloqiy-didaktik latifalar.* Bu turda latifalarda tasvirlangan voqeadan xulosa chiqarish kutiladi.

Shahar hokimi Afandiga buyurdi:

– Menga bir bahaybat, qopag‘on it topib keling!

Afandi esa, buyruqning aksini qilib, yuvosh bir it topib keldi. Hokim Afandini koyidi:


– Men sizga «qopog‘on it topib keling!» desam, juda yuvosh itni olib kelibsiz.

Afandi beparvo javob berdi:

– Taqsir, xotirjam bo‘ling, bu janoblarining oldida besh-olti kun tursa, o‘zlaridan ta‘lim olib, zanjirini ham uzadigan bo‘lib ketadi.

Bu turdagi latifalarda tinglovchiga kulgi orqali axloqiy g‘oya yetkaziladi. Hokimning yoniga ishga kelgan kishilar mansab mazasini tortgach, odamlarni mensimaydigan, kibrli, qo‘pol shaxsga aylanib qolish tanqid ostiga olingan. Ko‘rinadiki, o‘zbek va rus latifalariga berilgan tavsifda syujetning soddaligi, ixchamligi, voqealarning paunt bilan yakunlanishi mushtaraklik kasb etadi. Quyida

o‘zbek va rus xalq latifalarining “tipologiyasi diagramma (sxema) ko‘rinishida” (1-rasm) ilmiy asosda aks ettirildi. Diagramma “qiyosiy struktura modeli” sifatida berilgan.



1-rasm. O‘zbek va rus latifalari tipologiyasi (diagramma).

Yuqoridagi diagrammada o‘zbek xalq latifalarida “hikmatli yumor”, “obrazli ifoda”, “an’anaviy obraz (Afandi)” orqali syujet shakllangan. O‘zbek latifalari strukturasida asosiy xususiyat: yumor + axloqiy xulosa + obrazli fikrlash yaqqol ko‘zga tashlanadi. Rus latifalarida syujetning: satira”, “byurokratiya tanqidi”, “absurd komizm” asosida shakllanganligi kuzatiladi. Rus latifalaridagi asosiy xususiyat: ironiya + ijtimoiy tanqid + mantiqiy buzilish shaklidagi strukturada aks etadi.

O‘zbek va rus latifalaridagi o‘xshashlik puant (kutilmagan yakun)ga asoslanish, tipik obrazlardan foydalanish, qisqa syujetga egalik singari poetik belgilarda ko‘rinadi. Ikki xalq latifalari o‘rtasidagi farq esa: o‘zbek latifasi → “hikmatli-kommunikativ model”, rus latifasi → “satirik-ijtimoiy model” ustunligida ko‘zga tashlanadi. O‘zbek va rus latifalari garchi bir xil strukturaga ega bo‘lsa-da, mazmun va vazifasi jihatidan keskin farq qiladi.

Rus folklorshunosligida Yevropa olimlari nazariy konsepsiyalariga tayanilgan holda latifalarni ichki guruhlariga ajratishda uch yirik ilmiy yo‘nalish shakllangan. Yu.M.Sokolov boshlab bergan sotsiologik yondashuv, V.Ya.Propp ommalashtirgan strukturalistik yondashuv hamda B.N.Putilov maktabiga xos funksional-tipologik yondashuv.

Yu.M.Sokolov latifani ijtimoiy mazmun va satira asosida tasnifladi, Propp uni komik struktura (nomutanosiblik, me‘yor buzilishi, puant) orqali tahlil qiladi. B.N.Putilov esa latifani madaniy kommunikatsiya va ijtimoiy vazifalar tizimiga ko‘ra ichki guruhlariga ajratishni ma‘qul topadi. Bu yondoshuvlar natijasi keyingi folklorshunoslar tadqiqotlarida o‘ziga xos shaklda bo‘y ko‘rsatgan.

Zamonaviy xalq latifalarini tadqiq etgan O.A.Chirkovanning dissertatsiya ishida hayotiy latifalar, mifologik latifa, tarixiy latifa singari ichki guruhlari haqida gap ketadi [14; 24]. Latifalarning tarixiy tipi borasidagi qarashlarni gruzin olimasi L.Diasamidzening tadqiqotida uchratamiz [4; 56]. A.A.Sitnova tadqiqotida latifa tiplari sirasida “talabalar latifalari” o‘rganilganligini kuzatamiz [12;24]. A.A.Sitnova o‘z tadqiqotida shahar folklori, xususan, talabalar tomonidan ijro etiladigan folklor janrlarini o‘rganadi. Olima talabalar tomonidan ijro etilgan va talabalarga bag‘ishlangan latifalarni alohida guruhlashtirganining guvohi bo‘lamiz. A.A.Sitnova tadqiqotida ham asosiy mezon sifatida mavzuga ko‘ra latifa namunalarini tasniflash prinsipi yetakchilik qilishi ko‘zga tashlanadi.

Ye.N.Abdrazakova rus-bolgar va ingliz latifalarining kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotida latifalarni tarixiy latifalar va zamonaviy latifalar kabi ikki asosiy guruhga ajratadi [2;24]. 2016-yilda Sankt-Peterburgda himoya qilgan A.S.Astapovanning nomzodlik dissertatsiyasida rus latifalari *siyosiy, etnik va dolzarb latifalar* singari uch guruhga ajratilgan [3; 24]. Tadqiqotchi latifalar tasnifida mavzu ko‘lamiga nisbatan ularni gurug‘lashtirgani yaqqol sezilib turadi. Uning latifalarni tasniflash prinsiplarida V.Ya.Prop, Yu.M.Sokolov B.N.Putilov konsepsiyalaridan og‘ishish holati kuzatiladi.

O‘zbek xalq nasrini tasniflash mezonlari borasida alohida o‘ziga xos konsepsiya yaratgan taniqli o‘zbek folklorshunosi M.Jo‘rayev jahon va turkiy xalqlar folklorshunosligining og‘zaki nasr janrlarini tasnif qilish borasida to‘plangan ijodiy ilmiy tajribalariga suyanib, o‘zbek xalq nasri janrlarini farqlash mezonlari asosida badiiy-estetik jihatdan turkumlashtirishda asosiy yetti jihatga e‘tibor qaratish lozimligini uqtiradi. Bular:

1. Janrning funksional-semantik qamrovi,
2. Tinglovchi va aytuvchining bayon qilayotgan hikoyaga munosabati,
3. Janrning badiiy darajasi va obrazlar silsilasining talqini,
4. Janrning voqelikka munosabati,
5. Voqelik tasvirining zamonaviy talqini yoki janrning an’anaviy epik vaqtga munosabati,
6. Voqeilik bayonining makoniy qamrovi,
7. Voqelikni bayon qilish usuli [6; 28–34].

Ayni shu mezonlar asosida latifalarni ham tasniflash mumkin. Bizningcha, o‘zbek xalq latifalarini tasniflashda professor M.Jo‘rayev konsepsiyasiga tayanish lozim.

O‘zbek va rus latifalarini tasniflashda latifalarning tuzilishi, mavzu ko‘lami, ijro o‘rni va uslubi, funksional vazifasini inobatga olgan holda guruhlashtirish lozim. O‘zbek va rus latifalari qiyosiy tahlilida ularni quyidagi mezonlar asosida ichki guruhlariga ajratib o‘rganish mumkin:

- tematik mezon (ijtimoiy, maishiy, siyosiy);
- struktural mezon (puant, dialog, absurd);
- funksional mezon (tanqid, ko‘ngilocharlik, tarbiya);
- madaniy kontekst (sharqona va g‘arbona an’ana) ifodasiga ko‘ra.

O‘zbek va rus latifalari tipologik jihatdan umumiy komik strukturaga ega bo‘lsa-da, ularning mazmun, funksiya va madaniy ifodalarida sezilarli farq mavjud. Rus folklorida latifa ko‘proq ijtimoiy tanqid vositasi sifatida shakllangan bo‘lsa, o‘zbek folklorida u ko‘proq hayotiy hikmat va yumor uyg‘unligi sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan biz har ikki xalq madaniyati, dunyoqarashi va

ijtimoiy o‘ziga xosliklarini inobatga olib, latifalarni mavzuiy – tematik tasnif qilish tarafdorimiz.

Latifa janridagi og‘zaki asarlarni tematik tasniflaganimizda ularning tuzilishi yoki funksional jihatlari, qaysi madaniy kontekstga mansubligi masalalari ham o‘z-o‘zidan tadqiqot mohiyati aks etadi.

Shunday qilib, o‘zbek va rus latifalarini tematik mezon asosida ko‘rib chiqamiz.

Ijtimoiy latifalar. Bu guruhdagi latifalar jamiyatdagi muammolarni ixcham, tipik obrazlar vositasida tasvirlashga qaratiladi. Bunday latifalarda jamiyatdagi munosabatlar zaminida jamiyat muammolari aks etadi. Ularda hayotdagi oddiy holatlar, kulgi ostida tinglovchiga pand-nasixatning o‘ziga xos ko‘rinishini ifodalaydi. Masalan, “Bir podshoh she’r yozib saroy ahliga o‘qib beribdi. Hamma maqtabdi. Faqat Afandi jim turganmish. Podshoh:

– Sen nima deysan?, - desa Afandi:

– Bunaqa rasvo she’rni eshitmaganman, - debdi. Podshohni jahli chiqib, uni zindonga tashlabdi. Bir haftadan keyin Afandini shohni yoniga olib borishibti. Podsho yangi she’rni o‘qib berib,

– Qalay chiqibdi?, - desa, Afandi indamasdan o‘girilib ketayotganmish.

Podshoh:

– Qayoqqa?, - desa, Afandi:

– Zindon qayerda edi, - dermish” [1].

Mazkur latifada ijtimoiy muammo so‘z erkinligi masalasi poetik talqinda o‘z ifodasini topgan. Ijtimoiy muammo shohning nomaqbul she’ri (fikri, qarori)ni atrofida gilarning yolg‘ondakam maqtashi. Jamiyatdagi laganbardorlik, xushomadgo‘ylik illati, uning ortida amaldorlarning shaxsiy manfaatlarini turishi, Afandi obrazida oddiy xalqning saroy ayonlari ko‘z yumayotgan haqiqatni ko‘rib turishi va uning noto‘g‘ri ekanligi ochiq ifodalashi Afandi nutqi va uning xatti-harakati orqali badiiy ask etgan.

Vladimirning joni uzilib jannat eshigi oldiga boribdi. Bu yerda uni avliyo Pyotr qarshi olib: “Sen qayerga borishni xohlaysan, jannatgami yoki do‘zaxga?”-

deb so‘rabdi. Vladimir: “Albatta jannatga”,- deb javob beribdi. Shunda avliyo Pyotr: “Shoshma yaxshisi sen bir kun jannatda, bir kun do‘zaxda yashab ko‘r keyin o‘zing tanlaysan”,- debdi. Vladimir rozi bo‘libdi va ular liftga borishibdi. Liftda pastga tusharkan Vladimir do‘zaxning daxshatlari haqida o‘ylay boshlabdi. Lift eshigi ochilib, Vladimir golf maydoni, barlar, do‘stlarining shodon qiyqiriqlari va golf o‘ynayotganini ko‘ribdi. Do‘stlari uni ko‘rishi bilan shodlikdan qichqirishib, quchoq ochib qabul qilishibdi. Ular kun bo‘yi golf o‘ynashibdilar, qimmatbaho spitrli ichimliklar iste‘mol qilishibdi, qora ikra yeyishibdi qimmatbaho mashinalarda sayr qilibdilar. Inson qiyofasidagi shayton Vladimirga yaqinlashibdi va undan “bu yer senga yoqdimi?”- deb so‘rabdi. Vladimir bu unga juda yoqishini aytibdi. Kechqurun Pyotr uni olib ketish uchun keldi, do‘stlari xafa bo‘lishdi, ular qaytib kelishini so‘rashni boshladilar. Vladimir ikkinchi kunni jannatda o‘tkazdi, bulutdan-bulutga sakrab, ibodat qildi. Uchinchi kuni Avliyo Pyotr Vladimirga yaqinlashib: “Siz bir kun jannatda va bir kun do‘zaxda yashadingiz. Qayerga ketayotganingizni tanlash vaqti keldi”. Vladimir javob berdi: “Bilasizmi, osmon ajoyib! Xudoga ibodat qilish, non va suv iste‘mol qilish, lekin u yer zerikarli”. Avliyo Pyotr: “Xo‘sh, unda do‘zax bo‘lsa do‘zaxda”-, deb javob berdi va ular liftga kirishdi. Ular yo‘lda. Vladimir allaqachon do‘stlari bilan dam olishni intilqik bilan kutmoqda. Lift eshiklari ochilib, Golf maydonchasi va go‘zal tabiat o‘rniga Vladimir axlatga to‘la cho‘lni ko‘rdi va uning do‘stlari chirkin kiyimlar kiyib, axlatni yig‘ishmoqda ekan. Erkak qiyofasidagi iblis Vladimirga yaqinlashdi va dedi: “Xush kelibsiz janob!”. Vladimir shaytondan golf maydonchasi qayerda, barlar qayerda, mashinalar qayerda ekanligini so‘radi. Iblis: “Bu saylov kampaniyasi edi va siz biz uchun ovoz berdingiz”,-deb javob beribdi [17].

Yuqorida keltirilgan rus xalq ijtimoiy latifasida siyosiy masala saylov oldi hukumatdagilar oddiy xalqni aldashlari kulgiga sabab bo‘lgan. Aslida odamlar saylov oldi siyosatchilarning nayranglariga uchishadi, ularning hadyalaridan xursand bo‘lib, ularni lavozimga saylaydilar. Siyosatchi o‘z maqsadiga erishgach, faqat boylik orttirish, odamlarning rizqini qiyish, ular hisobidan dabdabali uylar, hashamatli hayot qurishga o‘tadilar. Siyosatchilarning ijtimoiy muammolarni

keltirib chiqaruvchi nayranglari latifa mavzusiga chiqqan. Latifada epik qahramon rahbari bo‘lib, u faqatgina narigi dunyodagina o‘z qilmishlariga javob berishi mumkinligi, odamlar birlashmasdan yolg‘onlarga uchishi xalqning og‘ir kunlarni boshidan kechirishiga sabab bo‘lishi, nobakorlar lavozimga o‘tirib olsa bas, uni odam bolasi pastga tushiraolmasligi g‘oyasi ifodalangan.

Maishiy latifalarda kundalik hayot, oila mavzusi o‘z ifodasini topadi. Bunday latifalarning maqsadi tinglovchiga kulgi baxshida etish, uning kayfiyatini ko‘tarish, kulgi manbi bo‘lib, oddiy hayotimizdagi holatlar, qisqa, lo‘nda ixcham syujetda ifodalanadi. Masalan, “Bir kuni Afandining eshigi taqqillabdi. Ochib qarasa qo‘shnisi ekan. Qo‘shni bilan Afandi qisqagina gaplashib, eshik yopib, dasturxon atrofiga o‘tirgan ekan, xotini undan kim kelganligini so‘rabdi. Afandi:

- Qo‘shnimiz falonchi,-deb tanavvul qilaveribdi. Xotini:
- Nimaga kelibdi?-deb so‘rabdi. Shunda Afandi:
- Ayoli olamdan o‘tibdi, peshinda janozasiga aytib ketdi,-debdi. Xotini:
- Voy sho‘rlik ey!-deya ko‘zi yoshlanibdi. Afandi xotini yupatib:
- Yig‘lama onasi, men ham rosa xijolatman, -debdi. Afandining xotini:
- Siz nega xijolat bo‘lasiz?-desa Afandi:
- Qo‘shnim bechor shu yilda uch marta “Ayolim o‘lib qoldi, janozaga chiqing”,-deb taklif qildi. Men esa, uni biror marta xotinimni janozasiga taklif qilmadim, -deyarmish” [5].

Mazkur latifada mavzuning o‘zi maishiy – mahalladosh qo‘shnisinikida ta‘ziya. Kulgi manbai ham oddiy ta‘ziyani tashkil etish uchun qo‘ni-qo‘shnilarni chaqirish holati. Komik holat qahramonning xotiniga bergan javobi orqali maydonga keladi. O‘zbek xalqidagi “Bor tovog‘im, kel tovog‘im” naqliga binoan, qo‘shnilar birini bir tadbirga yoki ziyofatga chaqirsa, albatta uni ham ziyofat yeganlar galma-gal chaqirib ziyoat qilish an‘anasi mavjud. Bu xalqimiz hayotida qadriyatga aylanib ketgan holat. Latifada epik qahramon mana shu qadriyat nuqtai nazaridan xijolat tortadi. Biroq uning bu xijolati asabiga tegib ketgan xotiniga yengil hazil qilishi bilan uyg‘unlashib, tinglovchi ongida kulgini qo‘zg‘ashga

sabab bo‘ladi. Xuddi shu tipdagi latifalarda kundalik maishiy hayotimizda uchrovchi holatlar aks etadi:

“Afandi bir kuni to‘yga bordi. Uning yonida o‘tirgan bir savdogar ochofatlik qilib yeganiga qanoatlanmay, dasturxondagi qand-qurslardan olib, cho‘ntaklarini to‘lg‘azdi. Afandi buni ko‘rib yonida turgan choynakni oldi-da, sekin uning cho‘ntaklariga quya boshladi. Savdogar payqab qolib, jahl aralash Afandidan so‘radi:

– Nega cho‘ntagimga choy quyyapsiz?

– Cho‘ntagingiz qand-qursni ko‘p yeb chanqab qolgandir,- dedi Afandi” [1].

Keltirilgan latifada el orasida uchraydigan ko‘zi och, maraka-mavludga borganda yeb-ichgani kamlik qilib, cho‘ntagiga ham dasturxondagi noz-ne‘matlarni solib ketadigan nazari past odamlarning qiliqlari kulgi otiga olingan. Garchi hayotdagi ko‘zga ko‘rinmas, arzimas bo‘lib tuyulgan bu illat ba‘zan tez-tez hayotimizda uchrab turadi. Ba‘zi shu toifadagi kishilar to‘yga borsa, dasturxondagi oziq-ovqatlardan olib ketishni o‘zlarining odatiga aylantirgan. Tashqaridan kuzatgan kishiga o‘ta g‘alati tuyuladigan bu illat tarbiyasizlik, ochko‘zlik, nazari pastlik ekanligi ba‘zan odamlarga ochiqchasiga aytishdan tortinamiz. Shuning uchun donishmand xalq bunday illatga chalinganlarni obrazli badiiy ifoda orqali tanqid qilibgina qolmay tinglovchilarning kayfiyatini ko‘tarishga xizmat qiladi.

Maishiy latifalarda turli hayotiy masalalar mavzu sifatida maydonga chiqadi. Quyidagi latifada jamoat transoptida yuz bergan odatiy holat kulgiga sabab bo‘ladi:

Marshrutkada ketayotsam bir kampir chiqdi. Uning sumkasidan nimadir pastga tap etib tushdi. Shuda haydovchi hazillashib:

– Yerga tushgan narsa meniki bo‘ladi, - dedi.

Kampir:

– Sen ehtiyot bo‘lib ketaver aks holda meni o‘zim tap etib pastga tushsam seniki bo‘laman,-debdi [16].

Tish doktori, muolajani tamomlab mijozga yuzlanibdi:

– Xudo haqqi meni kechiring. Og‘rigan tishingiz qolib sog‘lom tishingizni olib tashlabman. Endi yana og‘riq tishni olishimizga to‘g‘ri keladi.

Mijoz jahl qilish o‘rniga doktorga qarab:

– Raxmat duxtir, yaxshiyam baxtinga ko‘z duxtiri bo‘lmabsiz,-deb javob beribdi [16].

Ko‘rinadiki, maishiy latifalar kundalik hayotdagi muammolar asosida voqelikni ifodalaydi. Rus latifalarida o‘zbek latifalariga qaraganda epik qahramonning keskin munosabat bildirishi, masalani ochiqchasiga tasvirlash uslubi yetakchilik qiladi. Struktural jihatdan rus latifalari ixcham, qisqa ekanligi bilan xarakterlidir.

O‘zbek xalq latifalarida rus latifalaridan farqli o‘laroq epik voqea kichik syujet asosida nisbatan batafsil ifodalanadi. Har ikki xalq latifasida qahramonlar oddiy odamlar, mavzu kundalik turmush tarzidan kelib chiqadi.

Xullas, Ijtimoiy latifalar mazmunida jamiyatdagi munosabatlar, odamlar orasidagi xulq-atvor, ijtimoiy tengsizlik, odatlar o‘z ifodasini topadi. Bunday latifalarda jamiyatdagi kamchiliklarni yumor orqali ko‘rsatish, odamlarni o‘ylashga undash maqsad qilib qo‘yiladi. Ularning kulgu manbai esa, kutilmagan vaziyat, inson tabiatidagi ziddiyatlardan iborat. Bunday latifalar ko‘pincha pand-nasihatli, umumlashtirilgan obrazlar (boy, kambag‘al, amaldor va h.k.)lar o‘rtasida munosabatlarni poetik talqin qilish xususiyatiga ega bo‘ladi.

Maishiy latifalar mazmunida kundalik hayot – oila, qo‘shnichilik, er-xotin munosabati, bozor, ro‘zg‘or muammolari aks etadi. Bunday latifalarda bosh g‘oya – oddiy hayotdagi kulgili holatlarni ko‘rsatish, tinglovchiga yaxshi kayfiyat bag‘ishlashdan iborat bo‘ladi. Ularda kulgu oddiy vaziyatning kulgili tus olishi, xarakterlar to‘qnashuvi orqali yuzaga keladi. Ularda tasvirlangan voqealar sodda va tushunarli, hodisalar ommabop – barchaga yaqin mavzular doirasida kechadi.

Siyosiy latifalar mazmunida esa, hokimiyat, siyosat, rahbarlar, qonunlar, davlat tizimida yuz bergan muammolar aks etadi. Bunday latifalarning bosh g‘oyasi – tanqid qilish (ko‘pincha yashirin yoki o‘tkir shaklda), jamiyatdagi

siyosiy vaziyatga munosabat bildirishdan iborat bo‘ladi. Ularda kulgu absurd qarorlar, rahbarlar xatolari yoki ikkiyuzlamachilik tasviri orqali ifodalanadi.

Xullas, *ijtimoiy latifalar* – jamiyatdagi hayotiy voqealar fonida muammolarni aks ettiradi va tinglovchini o‘ylantiradi. *Maishiy latifalar esa*, hayotda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisalar talqini vositasida tinlovchiga yengil kulgu bag‘ishlaydi. *Siyosiy latifalar* butun jamiyat, butun boshli bir hudud ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muammolarni o‘tkir hajv va tanqid qilishga qaratilgan og‘zaki epik nasr namunasidir.

Quyida o‘zbek va rus latifalari tasnifida ularning o‘ziga xosliklari jadvalda o‘z ifodasini topgan:

Demak, *Ijtimoiy latifalar* tinglovchini kuldiradi va → fikrga chorlaydi. *Maishiy latifalar esa*, tinglovchiga quvnoq kulgu hadya etib uning → kayfiyatini ko‘tarishga xizmat qiladi. *Siyosiy latifalar*→ jamiyatdagi global muammolarni tanqid qiladi. Tinglovchini kuldirish asnosida o‘ylashga, mulohaza qilishga ham undaydi.

O‘zbek va rus latifalari xalq og‘zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo‘lib, ular orqali jamiyatning dunyoqarashi, qadriyatlari va yumorga bo‘lgan munosabati yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu latifalarni ilmiy jihatdan o‘rganishda ularni tasnif qilish mezonlari va tipologiyasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, latifalarni tasnif qilishda qo‘llaniladigan asosiy mezonlardan biri – mavzu (tematika) hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek va rus latifalari ijtimoiy, maishiy va siyosiy turlarga ajratiladi. Ijtimoiy latifalarda jamiyatdagi munosabatlar, tengsizlik, axloqiy muammolar aks etsa, maishiy latifalarda kundalik hayot, oilaviy munosabatlar va oddiy turmush holatlari tasvirlanadi. Siyosiy latifalar esa hokimiyat, rahbarlar va davlat tizimiga nisbatan tanqidiy ruhni ifoda etadi.

Ikkinchi muhim mezon – qahramonlar tizimi. O‘zbek latifalarida ko‘pincha milliy obrazlar, ayniqsa Nasriddin kabi hikmatli va ziyrak qahramonlar uchraydi. Bu qahramon orqali xalq donoligi, adolatparvarlik va topqirlik kabi sifatlar targ‘ib qilinadi. Rus latifalarida esa, Vovochka, chukcha kabi tipik va umumlashgan

obrazlar orqali kulgu yaratiladi. Bu qahramonlar ko‘proq muayyan xarakter yoki stereotipni ifodalaydi.

Uchinchi mezon – yumorning tabiati va uslubidir. O‘zbek latifalarida yumor odatda yumshoq, hayotiy va pand-nasihatga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular ko‘pincha tinglovchini nafaqat kuldirish, balki o‘ylantirish vazifasini ham bajaradi. Rus latifalarida esa yumor qisqa, o‘tkir va ba‘zan absurd elementlarga boy bo‘lib, kutilmagan yakun orqali ta’sir ko‘rsatadi.

To‘rtinchi mezon – til va bayon uslubidir. O‘zbek latifalarida milliy kolorit, odob-axloq va an’anaviy nutq uslubi saqlanadi. Rus latifalarida esa qisqalik, aniqlik va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda ustunlik qiladi. Bu esa ularni tez qabul qilinadigan va ommaviy shaklga keltiradi.

Shuningdek, latifalarni o‘rganishda ularning funksiyasi ham muhim o‘rin tutadi. Ayrim latifalar tarbiyaviy vazifa bajarsa, boshqalari faqat ko‘ngilochar xarakterga ega bo‘ladi. Yana bir qismi esa tanqidiy funksiyani bajarib, jamiyatdagi muammolarni yumor orqali ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va rus latifalarini tasnif qilishda mavzu, qahramon, yumor xususiyati, til uslubi va funksiya kabi mezonlar asosiy o‘rin tutadi. Ular har bir xalqning madaniy dunyoqarashi va hayot tarzini o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. Shu bois, latifalar nafaqat kulgu manbai, balki muhim ijtimoiy-madaniy hujjat sifatida ham qimmatlidir.

O‘zbek va rus latifalarini tasnif qilishda mavzu, qahramon, yumor xususiyati, til uslubi va funksiya kabi mezonlar asosiy o‘rin tutadi.

Latifalarni tasniflashda tematik (ijtimoiy, maishiy, siyosiy), struktural (puant, dialog, absurd), funksional (tanqid, ko‘ngilocharlik, tarbiya) va madaniy kontekst mezonlari asosiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu mezonlar asosida latifalar nafaqat kulgu vositasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar va dunyoqarashni aks ettiruvchi muhim folklor janri sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Afandi haqida latifalar <https://latifa.uz/uz/tags/afandi/page/2>

2. Абдразакова Е.Н. Сопоставительный когнитивный и лингвокультурологический анализ русских, болгарских и английских анекдотов: автореферат диссертации кандидат филологических наук – Тюмень, 2007. – 24 с.

3. Астапова А.С. Современный студенческий анекдот: сюжетный состав и тематические особенности: Автореферат диссертации кандидат филологических наук. – Санкт-Петербург, 2016. – 24 с.

4. Диасамидзе Л. Текст типологическая интерпретация жанра «анекдот» (на материале английского, его американского варианта и грузинского языков): Автореферат диссертации доктор филологических наук. – Батуми, 2013. – 56 с.

5. Диссертантнинг дала ёзувлари. Ахборотчи: А.Ахтамов 32 ёш. Маълумоти ўрта махсус. Тошкент шаҳри. 2022-йил 16 март. Ёзиб олувчи: Ғ.Холбутаев.

6. Жўраев М. Ўзбек халқ насри жанрларини тасниф қилиш мезонлари //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. – №5. – Б.28-34.

7. Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. –

8. Mardonov M.S. O‘zbek va amerika hazillarining madaniy o‘ziga xosliklari //“O‘zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari” ilmiy-nazariy metodik jurnal. – Urganch, 2024. – № 5. – В.128-136.

9. Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – Москва: Искусство, 1976.

10. Путилов Б.Н. Фольклор и народная культура. – СПб.: Наука, 1994.

11. Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки бадиий ижоди: дарслик. – Бухоро, 2006. – Б. 221.

12. Ситнова А.А. Вербальное творчество студенческого сообщества: характер и типы связей с традиционной и массовой культурой: Автореферат диссертации кандидат филологических наук. – Ульяновск, 2009. – 24 с.

13. Соколов Ю.М. Русский фольклор. – Москва: Учпедгиз, 1941.

14. Чиркова О.А. Поэтика современного народного анекдота: Автореферат диссертации кандидат филологических наук. – Москва, 1997. – 24 с.

15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик 1- том. – Москва: Русский язык, 1981. – 632 б.

16. <https://qdpro.com.ua/uk/node/18086>

17. https://www.reddit.com/r/AskARussian/comments/q1z4g6/comment/hfja1m1/?tl=ru&utm_source=share&utm_medium=web3x&utm_name=web3xcss&utm_term=1&utm_content=share_button